

TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV LINGVISTIKA SHAKLLANISH TARIXIGA DOIR

Tuxtanazarova Sarvinoz Umidjon qizi,

Fargona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

sarvinozbahrom2@gmail.com

Ismoilova Shodiya Xusanjon qizi,

Fargona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti, Ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

shodiyaismoilova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning yo‘nalishi hisoblangan kognitiv lingvistika va undagi konsept tushunchasi haqida ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari konsept tushunchasi to‘g‘risidagi tilshunoslar tomonidan berilgan turli fikrlar ko‘rib chiqilib, madaniyatning konsept tushunchasining anglashdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar

Antroposentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, kognitiv mexanizm, lingvistik belgining, konseptning o‘rindoshlik vazifasi, aktiv va passiv so‘z boyligining konseptosferasi.

Tilshunoslik asos solinganidan buyon til qanday fenomena ekanligi, uning kelib chiqishi, tillar o‘rtasidagi qarindoshlik, ularning tipologik o‘xshashliklari va farqlari xususida ko‘plab izlanishlar olib borildi. Zamonaviy lingvistika hisoblangan antroposentrik paradigma inson omilini va til bilan aloqasini o‘rganishni maqsad qilgan holda lingvistikada yangi yo‘nalishlar ,xususan, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatika, etnolingvistika, lingvakultururologiya kabi sohalarga asos soldi. Ushbu maqolada yuqorida keltirib o‘tilganlardan biri ,kognitiv lingvistika va unda konseptning o‘rganilishiga to‘xtalib o‘tamiz.

Kognitiv tilshunoslik Kubryakovning ta‘biriga ko‘ra tilga umumiy kognitiv mexanizm, axborotni tasvirlanishi(ko‘dlanishi) va uzatilishida muhim rol o‘ynovchi belgilar sistemasining kognitiv quroli sifatida qaraydigan tilshunoslikning yo‘nalishidir.¹ Avallo belgi va kod nima ekanligiga to‘xtalib o‘tish lozim. Tilshunos olim A.Nurmonov belgi sotsial axborotning har qanday ifodalovchilari deb ta‘rif beradi. Semiotikaning birligi hisoblangan belgi kognitiv tilshunoslik hali paydo bo‘lmasdan avval tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Brinchi bo‘lib o‘rgangan va tilshunoslikda yangi burilish yasagan olim Ferdinand de Sossyur lingvistik belgining ikki tomoni

¹ Кубрякова Е.С Краткий словарь когнитивных терминов Е.С Кубрякова В.З Демьянков Ю.Г Панкрацб Л.Т Лузина-:Изд-во Моск.госу.ун-та,1996

mavjud ekanligini ta’kidlaydi, uning moddiy tomoni(signifier/signifiant) va uning ma’no, konsept tomoni(signified) ,ular bir biridan ajralmas va biri ikkinchisi talab qiladi.² Misol uchun ”у(дом)” so’zini oladigan bo’lsak, uning moddiy tomoni so’z shaklida, ma’no yoki konsept tomoni uning inson ongida tasviri. Aynan shu yerdan ham ma’lumki konsept sifatida turli insonlar uchun bu konsept turlicha gavdalandi. Kim uchundir ongiga yashash binosi xonadoni kelsa kim uchundir oila a’zolari, issiq ovqat, baxt makoni, yoki aksincha ro’zg’or tashvishlari hayoliga keladi. F.Sossyur bu ikki tomonni psixologik phenomena hisoblanib, u narsa va nom o’rtasidagi aloqani emas balki, tovush yoki akustik tasviri(material) tomoni va konsept tomoni o’rtasidagi aloqa deydi³.

Sh.Safarov Kognitiv lingvistika nomli asarida mantiqiy faoliyat natijasi hisoblangan tushuncha va konseptga toxtalib o’tarkan, bu ikki terminning boshlang’ich nuqtasi uning xis qilinishi va inson ongida obrazli tassavurning paydo bolishi bilan aloqador bolib, dastlabki bosqichida individual tarzda har bir inson ongida turlicha tasvir hosil bolib, tafakkurning yuqori bosqichlarida ular umumlashadi va mashxumlashib hamma uchun uchun yagona kodni ya’ni ramziy belgini hosil qiladi deb ta’kidlaydi.⁴ Misol uchun kitob inson tafakkurining quyi bosqichida o’qish uchun mo’ljallangan predmet tushunilsa , yuqori bosqichida kutubxona, bilim,yutuklikka erishish vositasi kabi axborotni yoki umumlashma kodni tashkil etadi. Gul tushunchadan konsept darjasiga otganda ozida turli xil manolarni qamrab olishi mumkun, masalan qizil atirgul sevgi, sariq atirgul ayriliq , oq atirgul dostlik ramziy belgiga ega.

Bunday qarashlar tushuncha va konsept o’rtasida farqni, albatta shu bilan birga o’xshashlik mavjudligini oydinlashtiradi. Har bir konseptning tarkibi hisoblangan tushunchaga yuqorida keltirilgan umumlashma kod taaluqli bo’lmay, konseptda aynan ramziy belgilar aks etadi. Masalan uzuk bu ayollar (erkaklar)ning barmoqlarga taqiluvchi zeb–ziynat ning bir turi bo’lsa bu tushuncha holatida ongda tasviri bo’lsa, ong qoldagi 4-barmoqdagi uzuk biz uchun oilali,turmushga chiqqan yoki uylanganligi haqidagi axborotni beradi, bunda uzuk konsept sifatida malum bir axborot bermoqda

Konsept qanday paydo bo’ladi va uni qanday qilib so’z orqali ifodalaymiz degan savollarga javob topaylik. Avallo voqealanayotgan predmet ongimizda farqli o’ziga xos tomonlari bilan farqlanib, song umumlashtirish yo’li bilan mallum bir guruhga birlashtirilib umumlashma obraz hosil qilinadi.Keyingi bosqichda ushbu obraz mantiqiy qayta ishlanib,konseptga aylanib ,lisoniy libos olishdan oldin inson ongida tassavurdagi modeli paydo bo’ladi, uni voqelashtirish maqsadida amalga oshirish uslubi izlanadi deydi Sh. Safarov⁵. Akademik bu fikr bilan nutning ichki (botiniy)va tashqi(zohiriy) turlarga bolinishi, yoki bo’lmasam shu ikki bosqichdan konsept inson

² M.Kistner.Linguistic sign theories.2005

³ M.Kistner.Linguistic sign theories.2005

⁴ Sh.Safarov.Kognitiv tilshunoslik.2006.15bet

⁵ Sh.Safarov.Kognitiv tilshunoslik.2006.15-15 betlar

hayolotidan tilda aksiga ko'chadi. Har qanday konseptning verballashuvidan avval inson ongida o'z representatsiyaga ega bo'lib til egalari nutqida turlicha ko'rinish oladi

Antroposentrik yo'nalishdagi bugungi zamon lingvistikasida konsept tushunchasi muhim ahamiyat kasb etmoqda va avvalo konsept so'zining ma'no va mazmuniga to'xtalib o'tish zarur.

Konsept atamasi zamonaviy lingvistikada keng qo'llaniladigan terminlardan biri bo'lib ko'plab izlanishlarning obyekt bo'lganligiga qaramay hanuzgacha mohiyatan mavhumligicha qolmoqda

Til va tafakkur o'rtasidagi aloqa nafaqat falsafaning o'rganilish obyektlaridan biri, balkim tilshunoslik ,xususan , kognitiv, lingvokulturologik, psixologik jihatdan tilshunoslar tomonidan tahlil qilinmoqda , izlanilmoqda.

Lixachev “ Rus tilining konseptosferasi “ maqolasida rus tilshunosligiga birinchi bo'lib konsept tushunchasini tadqiq qilgan Askaldovning konseptlarning tabiatini oydinlashtirish uchun uning eng muhim tomoni hisoblanadigan anglash visitasi ekanligiga e'tibor qaratish lozim, buni konseptning o'rindoshlik vazifasida ko'rishimiz mumkin deb ta'kidlaganini keltirib o'tadi. Konsept biz uchun bu fikrlash jarayonida bir turdagi obyektlarning noaniq to'plamini o'rnini bosadigan mental shakllanish deb ta'rif bergan . Lixachev esa bu fikrga misol etib o'simliklik organizmi uchun qandaydir umumiy fikr ifodalanganda, biz oxir oqibatda ularning haqiqiy yoki hech bo'lmaganda tasavvur qilinadigan o'simliklarning barcha belgilangan to'plamini nazarda tutishimizni keltiradi⁶

To'y konseptini oladigan bo'lsak , fikrlash jarayoni natijasida miyamizga to'y bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlar , masalan, nikoh to'yi, xatna to'yi, kelin, kuyov, to'yxona, nikoh uzugi kabi tushunchalar keladi. Aynan shuning orqali ham konsept va tushunchaning o'rtasidagi farq yaqqol seziladi. Konsept turli insonlarda ularning dini, madaniyati, urf-odatlari, yashash tarzi, hayotiy tajribasi, yoshi va jinsi kabi faktorlarning ta'sirida turlicha tasvirlar hosil bo'ladi. Yuqoridagi keltirilgan misol ingliz millati vakili uchun bir xil bo'lmasligi aniq, yuzochar marosimi, sabziarchdi marosimi kabi so'zlar inglizlar uchun notanish.

Qanchalik insonning madaniy tajribasi kam bo'lsa nafaqat uning tili, balkim aktiv va passiv so'z boyligining “konseptosferasi “ham kambag'al bo'ladi. Har bir millatning so'z boyligining konseptosferasi uing tarixan shakllanib kelayotgan urf-odatlaridan, qadriyatlaridan, yasash tarzidan, osha madaniyat sivilizatsiyasida darak beradi.O'zbek tilidagi to'y konsepti ham bizning madaniyatimiz, qadimdan shakllangan urf odatlarimiz , dinimiz kabi jihatlarni aks ettirgan holda ingliz tilidagi shu konseptdan farq qiladi, ona tilimizdagi to'y konseptining konseptosferasi ham juda boy hisoblanadi.

⁶ Д.С.Лихачев. Концептосфера русского языка.ст-149

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarni xulosalagan holda konsept bu inson ongiga shakllanuvchi uning hayot tajribasiga asoslangan, individual, madaniy, sotsial dunyosini o‘zida aks ettiruvchi, ma’lum bir ramziy belgini tashuvchi mental birlikdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Kistner.Linguistic sign theories.2005
2. Sh.Safarov.Kognitiv tilshunoslik.2006.15-15 betlar
3. Q. Sayyora., Formation of text analysis in linguistics. Modern journal of social sciences and humanities, 58-61,2022
4. Qizi, I. S. X. (2022). Importance of interference in language learning.
5. Д.С.Лихачев. Концептосфера русского языка.ст-149-153
Кубрякова Е.С.Краткий словарь когнитивных терминов Е.С Кубрякова В.З Демьянков Ю.Г Панкрацб Л.Т Лузина:-Изд-во Моск.госу.ун-та,1996-245с
6. С Курбонова. Об анализе лексических единиц в психолингвистике. Международная конференция по исследовательской идентичности, ценности и этике, 512–513 , 2022 г
7. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
8. Bahridinov, M. M., Turgunov, D. B., & Tojiboyev, I. M. (2020). SOME PROBLEMS OF LEXICAL INVESTIGATION OF THE NOVEL ULYSSES BY JAMES JOYCE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 208-212.
9. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
- 10.Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).
- 11.Qizi, O. S. Z., & OGLi, A. M. B. The Influence of Multilingualism in Learning a New Language.
- 12.Kochkorova, Z. A. Q. (2021). Translation aspects of the verbalizers of the concept of "wedding". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 989-994.
- 13.Ismoilova, G. (2021). FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KLASSIFIKATSIYASI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
- 14.Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.